O‘ZBEKISTON LOLALARI XALQARO QIZIL KITOBGA KIRITILDI

Lolalar (Tulipa L.) turkumi vakillari Xitoyning g‘arbiy qismidan tortib to sharqiy Yevropa hududlarida o‘sib, O‘rta Osiyo ushbu estetik zavq beruvchi ajoyib o‘simlikning tarqalish va bioxilma-xillik markazi hisoblanadi. Ayni paytda O‘zbekistonda lolalarning 33 turi mavjudligi aniqlangan.



Tulipa uzbekistanica—O’zbekiston lolasi

Tulipa dubia—Chipor lola

Tulipa intermedia—Oraliq lola

Tulipa ingens—Ulug’vor lola

Keyingi vaqtlarda Respublikamizda ko‘pgina noyob o‘simliklar qatori lola turlariga ham antropogen (inson faoliyatiga oid) omillarning salbiy oqibatlari o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Buning yaqqol isboti sifatida 19 ta lola turlarini O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga (2019) kiritilganligi va tadqiqot natijalariga ko‘ra lola populyatsiyalarini qisqarib borayotganligi dalil bo‘la oladi. Lekin 5 ta Qizil Kitobga kiritilgan lola turlari esa umuman muhofaza qilinmaydigan hududlarda uchraydi.

O‘rta Osiyo jumladan, O‘zbekiston lolalarini muhofaza qilish bo‘yicha Buyuk Britaniyaning Kembridj Universiteti va Kyu Qirollik Botanika bog‘i, Flora va Fauna Xalqaro tashkiloti, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston Respublikalari Fanlar Akademiyalari botanika va o‘simliklarni muhofaza qilishga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari ishtirokida ilmiy guruh tuzilgan va unga O‘zbekistondan O‘zRFA Botanika instituti olimlari (akademik K. Tojiboyev, b.f.n. N.Beshko va b.f.n. D.Dexqonov) kiritilgan bo‘lib, joriy yilning 10-13-may kunlari Bishkek shah rida “O‘rta Osiyo yovvoyi lolalarini Xalqaro Qizil Kitobga kiritish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha mintaqaviy strategiyani ishlab chiqish” bo‘yicha amaliy seminar bo‘lib o‘tgan edi. Uchrashuv davomida O‘rta Osiyoda lolalarni tarqalishi, ularga ta’sir etayotgan omillar, muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqish kabi masalalar muhokama qilingan.

Amaliy ishlar natijasi sifatida O‘zbekistonda tarqalgan 24 ta lola turlari Xalqaro Qizil Kitob sahifalaridan joy oldi. Unga ko‘ra, 4 ta O‘zbekiston lola turlari yo‘qolib ketish arafasida yoki yo‘qolib borayotgan toifalarga kiritilgan va ularni 3 tasi ayni paytda muhofaza qilinmaydi.

Shu paytgacha yurtimizda o‘suvchi birorta lola turini Xalqaro Qizil Kitobga kiritilmaganligini hamda Qizil

Kitobga kiritish muhofaza qilishning samara usullaridan ekanligini hisobga olgan holda, ushbu amalga oshirilgan ijobiy natijalar Respublikamiz bioxilma-xilligini muhofaza qilish borasidagi ulkan qadamlardan biri deb hisoblaymiz.